

JAHOLATGA QARSHI MA'RIFAT BILAN KO'RASHISHDA – TERMIZIY ALLOMALAR ILMIY-MA'NAVY MEROSINING O'RNI

Ergashev Otabek Xasanovich

Surxondaryo viloyati ichki ishlar boshqarmasi xodimi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bugungi kunda dunyo xavfsizligiga tahdid solib kelayotgan – radikalizm xavf-xatarlari, zararli oqibatlari haqida so'z boradi. Shuningdek, ushbu illatni oldini olishda termiziy allomalarning ma'naviy merosi o'rne ko'rsatib o'tiladi.*

Movarounnahr deyilganda dunyo olimlari – ilm fan taraqqiyotiga hissa qo'shgan ulug' zotlarning vatanini tushunadi. Musulmon Sharq davlatlarida Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Nasafiy, Imom Burhoniddin Marg'iloniy kabi allomalarning nomini eshitishi bilan ta'zim bajo keltiradi. Bu zamin shunday tabarruk maskanki, har bir bosgan qadamingiz ostida bir ulug' zotning qo'nim topgan tabarruk ziyoratgohi bor. O'zbekistonning qaysi go'shasiga borsangiz, bir ziyoratgoh borligiga guvoh bo'lasiz. Xalqimiz azaldan olimu ulamo, fozilu fuzalo, shoiru shuaro, adibu udabo va hokimu hukamolarni e'zozlagan. Bu zotlarning vafotidan so'ng qabrlari ustiga maqbara qurdirgan. Qaysi madrasa, masjid, maqbara devorlari va peshtoqlariga qarasangiz komil inson tarbiyasi uchun qisqa va keng ma'noli o'gitlar yozilgan. Har bir diqqatga sazovor joylarda ilm o'rganish, olimlarni qadrlash, insonlarga yaxshilik qilish borasida Qur'on oyatlaridan, hadisi sharifdan va mutasavvif zotlarning hikmatli so'zlaridan namunalar yozilgan. Shu kabi xayrli ishlar orqali, azaldan xalqimiz ilm o'rganishga nisbatan yoshlarimiz qalbiga muhabbat uyg'otishgan. Maqbara, madrasa va masjidlarda yozilgan o'gitlar yoshlar tarbiyasiga ma'lum darajada o'z ta'sirini ko'rsatgan. Ushbu o'gitlarni ko'rib yoshlar ilm o'rganishlik, olimlarni hurmat qilishlik va insonlarga yaxshilik qilishlik go'zal fazilat ekanligini bilganlar. Albatta, buning negizida yana bir hikmat yashirin. Bu ham bo'lsa, yoshlar qalbiga olimu ulamolarning asarlarini o'qishga chorlov bor. Misol uchun aytaylik, So'fi Olloyorning quyidagi bayti biron bir madrasa yoki maqbara peshtoqida yozilgan bo'lsa,

Agar uch kunda topsang bo'rdayi non,

Yema yolg'iz, ani yarmin qil ehson. (“Sabotul ojizin”).

Mana shu baytning o'zi qalbida zarracha ilmga ixlosi bo'lgan tolibi ilmni So'fi Olloyorning “Sabotul ojizin” nomli asarini o'qishga chorlaydi. Albatta, shunday yozuvlardan anglashiladiki, azaldan bizning xalqimiz jaholatga, ma'rifatsizlikka, axloqsizlikka, ilmsizlikka, diniy mutaassiblikka qarshi



targʻibot olib borganlar. Ushbu targʻibotning muhim ahamiyati shundaki, dono xalqimiz qaysi kasbda ishlashidan qatʻiy nazar insonlarga kerakli maʼnaviy ozuqa beradigan va hissiy taʼsir koʻrsatadigan oʻgitlardan keng foydalangan. Buning natijasida yurtimiz “buyuk allomalar yurti” deb nom qozonishga erishgan.

Jaholatga qarshi maʼrifat bilan kurashishning ikkinchi tomoni shundan iborat ediki, ulugʻ mutafakkirlarimiz tomonidan bu sohada minglab asarlar yozilgan. Bugungi kunga qadar dunyo musulmonlari va boshqa din vakillari allomlarimizning ilmiy merosi asosida ilm-fan sohasida yangidan-yangi kashfiyotlarni amalga oshirmoqda. Algebra sohasida al-Xorazmiydan dunyo olimlari qarzdorligini koʻpchilik bilsa kerak. Tabiiy fanlar sohasida Ahmad al-Fargʻoniy va Abu Rayhon Beruniydan dunyo olimlari qarzdor boʻlsa, tibbiyot sohisida esa Abu Ali ibn Sinodan butun bashariyat qarzdor, sheʼriyat mulkida esa butun shoirlar Rudakiy Samarqandiydan qarzdordir. Dunyo ilmu fan taraqqiyotini Movarounnahr ulamalarisiz tasavvur qilish amri mahol.

Shuning uchun bugungi axborot xuruji, mafkuraviy urushlar avj olgan zamonda, yoshlarni ommaviy madaniyat balosidan muhofaza etish uchun biz ajdodlarimizning maʼnaviy ozuqasiga katta ehtiyojimiz bor. Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Hakim Termiziy, Imom Moturidiy, Imom Nasafiy kabi ulugʻ olimlarning boy maʼnaviy merosini oʻrganish, keng kitobxon ommasiga taqdim etish dolzarb masalalardandir. Inson zoti moddiy oziqaga qanchalik ehtiyoji boʻlsa, maʼnaviy oziqaga ham shunchalik ehtiyoji bor. Zero, inson ruhi tirik boʻlsa, jismi sogʻlom va yuzida nur porlab turadi. Buni Xoja Bahoduddin Naqshband hazratlari “Dil ba Yoru dast ba kor” (“Qoʻling ishda, qalbing Allohda” degan qimmatli oʻgitidan ham bilsa boʻladi. Baʼzi valiy zotlar ruhiyati sogʻlom insonni “zindadil” (“tirik qalb sohibi”) deb keltiradi. Axloqsiz va johil kishilarni “murdadil” (“qalbi oʻlik”) deyishadi. Ruh jismning karvoni. Ruhiyati sogʻlom boʻlmagan jamiyatning iqtisodiyoti va turmush tarzi sogʻlom boʻlolmaydi. Farovon hayotga faqat mukammal ruhiy tarbiyagga ega boʻlgan kishilar erishadi. Baʼzilar aytishi mumkinki, dunyoda aqlsiz boylar juda koʻpku! Lekin ana shu boylarning hayotiga teranroq nazar tashlasak, aslida farovon hayot sohibi emaslar. Boyligi boʻlsa-yu, qalbida xotirjamlik va huzur boʻlmasa, bunday boylik unga har kuni kulfat keltirishi mumkin. Shu nuqtai nazardan bizning ulugʻ mutafakkirlarmiz oʻz asarlarida sogʻlom hayotni ikki narsa bilan qoʻlga kiritish mumkinligini taʼkidlaydilar: Birinchisi ruhiy tarbiya; Ikkinchisi jismoniy tarbiya va halol mehnat orqali.

Allomalarimiz boy maʼnaviy merosida jamiyatda komil insonni tarbiyalash bosh konsepsiya sifatida qaralgan. Har bir asarlarining maʼno mazmuni tagida ruhiy tarbiya yetakchi oʻrin egallagan. Misol uchun Hakim



Termiziy o‘z asarida komil insonni jamiyatda tarbiyalash uchun birinchi o‘rinda niyati to‘g‘ri bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi. Chunki niyatsiz va maqsadsiz ishlar hech qachon kutilgan natija bermaydi. Har bir qilinadigan ishimizning ilk qadami niyatni to‘g‘rilashdan boshlashimiz zarur. Vatan himoyasi yo‘lida xizmat qilayotgan askar, eng avvalo o‘zimni, oilamni, qavmu qarindoshlarimni va butun xalqimni himoya qilaman, shu orqali Allohning rizoligiga erishaman desa, niyati sog‘lom, ishida esa natija, molu davlatida baraka bo‘ladi. Buning aksi bo‘lsa, oqibati yaxshilik olib kelmaydi. Niyatsiz, maqsadsiz inson haqida Hakim Termiziy shunday deydi: **“Hech bir yo‘qotishdan qayg‘urish kerak emas, faqat niyatni yo‘qotishdan qayg‘urish kerak. Chunki biror xayrli ish niyatsiz durust bo‘lmaydi”**. Har bir kishi dunyoda ilm o‘rganishga muhtoj, bizning millatimiz ilm o‘rganish va uni keng dunyo ommsiga targ‘ib qilishda ustoz bo‘lishgan, bugun ham bizu sizlar yoshlar birinchi o‘rinda ilm o‘rganish nechog‘lik zarur ekanligini doimo eslatib turishimiz kerak. Chunki haqiqiy najot va haqiqiy farovonlikni faqatgina ilm orqali qo‘lga kiritish mumkin. Ilmni biz olimlar orqali o‘rganamiz. Olimlar bizga dunyo va oxiratimizga lozim bo‘ladigan ma’naviy oziqaning kalitini beradi. Endi ushbu bustonning eshigini ochish va uning samaralaridan bahramand bo‘lish bizning ixtiyorimizga bog‘liq. Ulug‘ Muhaddis bobomiz Imom Termiziy Payg‘ambarimiz sallallohu alayhi va sallamdan shunday hadisni rivoyat qilib “Sunani Termiziy” kitoblarida keltirganlar: **“Farishtalar, osmon va yerdagi butun jonzotlar, hatto inidagi chumoli va nihoyat dengizdagi baliqlar ham odamlarga yaxshilik o‘rgatuvchi olimlar haqqiga duo qilishadi”**. Inson o‘z nafsini isloh qilsagina atrof-muhitga ijobiy ta’sir ko‘rsata oladi. Bugungi kunda barchamiz uchun suv va havodek zarur hadislardan biriga boqing: **“Haromlardan saqlanginki, insonlarning eng obidi bo‘lgaysen; Allohning taqsimotiga rozi bo‘lginki, insonlarning eng boyi bo‘lgaysen; qo‘shninga yaxshilik qilginki, (komil) mo‘min bo‘lgaysen; o‘zinga ravo ko‘rgan yaxshi narsani boshqa insonlarga ham ravo ko‘rginki, (xolis) musulmon bo‘lgaysen! Va zinhor ko‘p kulmagin. Chunki ko‘p kulmoq qalbni o‘ldiradi.** (Hazrat Abu Hurayra roziyallohu anhudan).

“Muaddibul avliyo” (“Avliyolar adibi, murabbiysi”) Abu Bakr Varroq Termiziy ruhiy tarbiyaga barcha inson farzandi umrining so‘ngi nafasigacha muhtoj ekanligini bizlarga eslatadi. Abu Bakr Varroq Termiziy insonlani uch guruhga taqsimlaydi. **“Birinchisi – davlat xizmatchilari, ikkinchisi – olimlar, uchinchisi – fuqarolar (oddiy xalq).** Agar davlat xizmatchilarning tarbiyasida buzilsa, xalqning sog‘lom turmush tarzi va farovon hayoti buziladi; agar olimlar buzilsa, dinu diyonati nuqsonga uchraydi; agar fuqarolar buzilsa – jamiyat o‘rtasida tarqoqlik, fitna, hallollik buzilib, ushbu jamiyat tanazzulga



yuz tutadi”. Binobarin, har bir inson o‘z mas’uliyatidan kelib chiqib, o‘zini isloh qilishi o‘zi va jamiyat uchun koni foydadir.

Bizning ajdodlarimiz jamiyatning turli sohalarida faoliyat yuritadigan qatlamlarga zalvorli asarlar yozgani ilmiy jamoatchilikka sir emas.

Xoja Samandar Termiziy Saljuqiylarning odil vaziri Nizomul-mulk kabi davlatni boshqarishi va jamiyatni turli axloqsizlik odatlaridan qaytarish hamda ommaviy madaniyaini sog‘lom e’tiqod bilan barham berish uchun “Dasturul muluk” asarini yozgan. Ushbu asar davlat xizmatchilaridan tortib, oddiy fuqarolarning etikasini bayon etadi.

“Azizim, dushmanning so‘ziga ishonma, chunki u yuziga ishlov berilgan mato va aldovdir. Nifoq aralash shubha uni harakatga keltiradi. Doimo dushman o‘z maqsadi yo‘lida o‘ta muloyimlikni ishga soladi va ichiga xilof ravishda tashqi tomonga oro beradi. Seni g‘aflatga tushgan holda topgach, tadbir o‘qini maqsad nishoniga otadi” (Dasturul muluk).

“Azizim, dushman qanchalik bechora ko‘rinsa ham, uni xor deb bilmaslik kerak. Chunki u kuchi quvvati bo‘lmagan taqdirda ham, hiyla va nayrang bobida ojiz bo‘lmasligi, shaytoniy yo‘l bilan fitna olovini yondirishi, uning alangasini esa tadbir suvi bilan o‘chirishning iloji bo‘lmasligi mumkin”. (Dasturul muluk).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Samandar Termiziy. Dastur ul-muluk. Nashrga tayyorlovich va tarjimon M. Hasaniy. – Toshkent: Navro‘z, 2016.
2. Tursunov S., Murtazoyev B., Allanov O. Termiziy allomalar. – NMIU: O‘zbekiston, 2016.
3. Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy. Jomi’ as-sunan. Saylanma hadislar. Tarjima va izohlari mualliflari: H. Aminov, M. Ismoilov, B. Abdullayev. – T.: “Movarounnahr”, 2017.
4. Abu Bakr Varroq Termiziy: ma’naviy ma’rifiy / J. Cho‘tmatov. – Toshkent: “Shamsuddinxon Boboxonov” NMIU, 2020.
5. Hakim Termiziy: ma’naviy-ma’rifiy / U. Uvatov , J. Cho‘tmatov. – Toshkent: Shamsuddinxon Boboxonov, 2021.

